

## CHET ELLIK TALABALARGA O‘ZBEK TILINI O‘QITISH AMALIYOTINING JORIY HOLATI VA EHTIYOJLAR TAHLILI

**Zuhra Israilova,**

*Tayanch doktorant, stajyor-o‘qituvchi  
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat  
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti*

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.18358734>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan chet ellik talabalarga o‘zbek tilini o‘qitish amaliyotining joriy holati hamda ularning lingvistik va kommunikativ ehtiyojlari tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida o‘tgan o‘quv yillarda O‘zbekistonda tahsil olgan chet ellik talabalarga oid statistik ma’lumotlar, ularning ta’lim yo‘nalishlari va o‘zbek tilini o‘rganishdan ko‘zlagan maqsadlari o‘rganildi. Shuningdek, Toshkent davlat tibbiyot universiteti, Alfraganus xususiy universiteti, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti hamda Andijon davlat tibbiyot institutida chet ellik talabalar uchun o‘zbek tili ta’limining amaldagi holati tahlil qilindi.

**Kalit so‘zlar:** chet ellik talabalar, o‘zbek tili chet tili sifatida, ehtiyojlar tahlili, kasbiy o‘zbek tili, nofilologik yo‘nalish, ta’lim modeli.

**Аннотация.** В статье анализируется современное состояние практики преподавания узбекского языка иностранным студентам, обучающимся в высших учебных заведениях Республики Узбекистан, а также их лингвистические и коммуникативные потребности. В рамках исследования были изучены статистические данные об иностранных студентах, обучавшихся в Узбекистане в предыдущие учебные годы, их образовательные направления и цели изучения узбекского языка. Кроме того, проанализировано текущее состояние обучения узбекскому языку иностранных студентов в Ташкентском государственном медицинском университете, частном университете «Аль-Фараганус», Ташкентском государственном университете востоковедения и Андижанском государственном медицинском институте.

**Ключевые слова:** иностранные студенты, узбекский язык как иностранный, анализ потребностей, профессиональный узбекский язык, нефилологические направления, модель обучения.

**Abstract.** This article analyzes the current state of teaching Uzbek to foreign students studying at higher education institutions in the Republic of Uzbekistan, as well as their linguistic and communicative needs. Within the framework of the study, statistical data on foreign students who studied in Uzbekistan in previous academic years, their fields of study, and their objectives for learning the Uzbek language were examined. In addition, the current state of Uzbek language instruction for foreign students at Tashkent State Medical University, Alfraganus Private University, Tashkent State University of Oriental Studies, and Andijan State Medical Institute was analyzed.

**Keywords:** foreign students, Uzbek as a foreign language, needs analysis, professional Uzbek language, non-philological fields, educational model.

**Kirish.** So‘rovnoma va kuzatuvlar natijasida nofilologik yo‘nalishlarda, xususan tibbiyot ta’limida o‘zbek tili darslari uchun ajratilgan dars soatlari va o‘quv dasturlari tahlil qilindi, chet ellik talabalar uchun o‘zbek tili ta’limi jarayoniga oid muammo va kamchiliklar aniqlanib, taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalari chet ellik talabalarning aksariyati o‘zbek tilini ilmiy va kasbiy ehtiyojlar asosida o‘rganishga

intilayotganini, biroq mavjud ta'lim tizimi ularning real ehtiyojlariga to'liq mos kelmasligini ko'rsatdi.


Maqolada filologik va nofilologik yo'nalishdagi chet ellik talabalar uchun ehtiyojlarga asoslangan alohida o'qitish modellari ishlab chiqish, o'zbek tili dars soatlarini ko'paytirish, kasbiy yo'naltirilgan darslik va metodik materiallar yaratish hamda amaliyotga yo'naltirilgan mashg'ulotlarni joriy etish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqot davomida quyidagi metodlardan foydalanildi:

- statistik ma'lumotlarni tahlil qilish;
- so'rovnoma va suhbatlar;
- pedagogik kuzatuv metodlari;
- taqqoslash asosidagi tahlillar.

So'rovnoma va kuzatuvlar Toshkent davlat tibbiyot universiteti, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Alfraganus universiteti hamda Andijon davlat tibbiyot institutida tahsil olayotgan chet ellik talabalar hamda ularga o'zbek tilidan ta'lim beruvchi o'qituvchilar ishtirokida o'tkazildi. Tadqiqotda chet ellik talabalar uchun o'zbek tili dars soatlari, o'quv dasturlari, darslik va metodik ta'minotning bugungi holati o'rganildi.

Ma'lumotlarga ko'ra, 2024-2025 o'quv yilida O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida tahsil olgan xorijlik talabalarning umumiy soni qariyb 15 ming nafarni tashkil qilgan [12].



Eng ko'p chet ellik talabalar Hindiston, Turkmaniston, Pokiston, Rossiya kabi davlatlardan kelgan [11]. Chet ellik talabalar uchun o'zbek tilini kundalik, akademik va kasbiy muloqotda samarali qo'llash imkoniyati ularning ta'lim va kasbiy faoliyati uchun ham muhim ahamiyatga ega. Bunda ular uchun qulay til muhiti yaratish, integrativ yondashuv asosida darslar tashkil qilinishi maqsadga muvofiq. [4] Chet ellik talabalar o'rtasida ularning o'zbek tilini o'rganishdagi ehtiyoj va muammolarini aniqlash maqsadida so'rovnoma o'tkazildi. So'rovnoma natijalaridan ma'lum bo'ldiki, chet ellik talabalarning aksariyati o'zbek tilini ilmiy va kasbiy maqsadlarda o'rganmoqda. Shu sababli, chet ellik talabalar o'qiyotgan oliy ta'lim tashkilotlarining son jihatidan eng yuqori o'ntaligini tuzdik:

1. Toshkent davlat tibbiyot universiteti (o'tgan yilning o'zida Toshkent tibbiyot akademiyasiga kuzgi va bahorgi semestr uchun o'rtacha 500 nafar xorijiy talabalar o'qishga qabul qilingan. Hozirda uchta tibbiyot oliygohi birlashtirilib, chet ellik talabalar soni yanada ortgan.)

2. Buxoro davlat tibbiyot instituti;
3. Andijon davlat tibbiyot instituti;
4. Samarqand davlat tibbiyot instituti;
5. Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti;
6. Osiyo xalqaro universiteti (tibbiyot fakulteti);
7. O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;
8. Alfraganus universiteti;
9. O'zbekiston Milliy universiteti;
10. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti.

**Natijalar.** Tahlil natijalaridan ko'rinadiki, chet ellik talabalarning aksariyati tibbiyot oliygohlarida o'qimoqda. Bu esa ular uchun alohida kasbiy o'zbek tili kurslariga ehtiyoj uyg'otadi. Shuningdek, O'zbekistonda tahsil olayotgan chet ellik talabalarga o'zbek tilini o'qitish tizimini takomillashtirish uchun quyidagi ikki yo'nalishda tadqiqot olib borish maqsadga muvofiq: filologik yo'nalishdagi chet ellik talabalarga o'zbek tilini o'qitish; nofilologik yo'nalishdagi chet ellik talabalarga o'zbek tilini o'qitish. Har ikki yo'nalishda tahsil olayotgan xorijlik talabalar uchun alohida yondashuvlar talab etiladi. Chunki tilshunoslik yoki sharqshunoslik yo'nalishi talabalariga o'zbek tilini o'qitish lingvistik matnlar ustida ishlash, matnlarni adabiy va ilmiy tahlil qilish, o'zbek tilining har bir bo'limlari asosida chuqurlashtirib o'qitish muhim ahamiyatga ega. Biroq tibbiyot yoki iqtisodiyot yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun tilshunoslikka asoslangan murakkab grammatik qoidalarni chuqur o'zlashtirish ustuvor ahamiyat kasb etmaydi; ular uchun, avvalo, kasbiy faoliyatda zarur bo'lgan kommunikativ ko'nikmalar va sohaga oid leksik birliklarni egallash muhim hisoblanadi. Bu esa talabalarning ta'lim maqsadlaridan kelib chiqib, lingvistik ehtiyojlarini aniqlashni va aniqlangan ehtiyoj va muammolar bo'yicha maxsus ta'lim modeli ishlab chiqishni talab qiladi. Tadqiqot doirasida ba'zi oliy ta'lim muassasalarida chet ellik talabalar uchun o'zbek tili ta'limining joriy holati va o'quv dasturlari tahlil qilindi. Ma'lum bo'lishicha, mamlakatimizdagi tibbiyot yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalarining o'quv dasturlari Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlanadi. Shu sababli, Oliy ta'lim vazirligi va Sog'liqni saqlash vazirligi chet ellik talabalarga o'zbek tilini samarali va tizimli o'qitishni ta'minlashda mas'ul davlat organlari sifatida o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yishi hamda davlat tilining sifatli ta'limini ta'minlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirishi zarur.

**Muhokama.** Quyida ayrim universitetlar misolida filologik va nofilologik yo'nalishdagi chet ellik talabalar uchun o'zbek tili ta'limining amaliyotdagi mavjud holati qiyosiy tahlil qilinadi:

Toshkent davlat tibbiyot universiteti. Bu universitetda bugungi kunda o'n mingdan ortiq xorijiy talabalar tahsil oladi. Birgina o'tgan o'quv yilida Toshkent tibbiyot akademiyasiga kuzgi va bahorgi semesterlar uchun alohida o'rtacha 500 nafar chet ellik talabalar o'qishga qabul qilingan. 2025-2026 o'quv yilidan boshlab poytaxtimizdagi uchta tibbiyot oliygohi (Toshkent tibbiyot akademiyasi, Toshkent davlat pediatriya institute va Toshkent davlat stomotologiya universiteti) birlashtirilib, yagona Toshkent davlat universiteti sifatida faoliyat yuritmoqda. Hozirda mazkur universitetning chet ellik talabalar uchun ta'lim ingliz tilida olib boriladi. Ular uchun 6 yillik ta'lim davomida faqatgina 1-kurs 1 semestrda 30 soat (15 juftlik) dars soatlari ajratilgan. Ahamiyatlisi, chet ellik talabalar uchun 2 o'quv yili davomida har haftada 1 martta rus tili majburiy fan sifatida kiritilgan. Davlat tili bo'yicha muayyan o'quv dasturi, o'quv qo'llanma yo darsliklar ishlab chiqilmagan. Ma'lumotga ko'ra, undan oldingi o'quv yillarida o'zbek tili uchun 70 soat dars soatlari ajratilgan bo'lib, talabalar bir kunda 6 soat (ketma-ket 3 juftlik) o'zbek tili darsida bo'lishgan. Biroq, 2024-2025 o'quv yilidan boshlab xorijiy o'zbek tili dars soatlari ikki baravar kamaytirilgan. Chet ellik talabalar bilan olib borilgan muloqot jarayonida universitetda o'zbek tilini o'rganish uchun mo'ljallangan darslik va o'quv qo'llanmalar yetarli emasligi aniqlandi. Shuningdek, talabalar o'zbek tilini o'rganishda foydalanish maqsadida subtitrlı audiovizual materiallar, xususan, filmlar mavjud emasligini ta'kidladilar. Bu turdagi materiallarni internet manbalaridan ham topish imkoni cheklangan. Mavjud filmlarning aksariyati hududiy shevalarga asoslangan dublyajda bo'lib, bu holat talabalar uchun adabiy o'zbek tilini o'zlashtirish jarayonini qiyinlashtirmoqda. Natijada, chet ellik talabalar mahalliy aholi bilan kundalik muloqot jarayonida ham hududiy shevalar o'rtasidagi farqlar sababli kommunikativ qiyinchiliklarga duch kelmoqda.

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti. Mazkur universitetda chet ellik talabalar bilan faqatgina muayyan muddat asosida shartnoma tuziladi. Tuzilgan shartnomaga ko'ra belgilangan muddat asosida ta'lim dasturlari yo'lga qo'yiladi. Shunga ko'ra, ular uchun o'zbek tili darslari majburiy fan sifatida emas, muddatli o'quv kursi sifatida o'qitiladi. Shartnoma asosida 3 oylik, 6 oylik, 1 yillik hamda semestrlar kesimida va intensiv kurslar mavjud. Darslar to'liq o'zbek tilida hech qanday vositachi tilsiz olib boriladi. Biroq, mazkur universitetda ham chet ellik talabalar uchun o'zbek tili bo'yicha o'quv qo'llanma va darsliklarning yetarli emasligi aniqlandi. Talabalar mustaqil shug'ullanishlari uchun ma'lumot va kontentning kamligi, sifatli audiovizual materiallarning yetishmasligi aniqlandi.

Alfraganus universiteti. Mazkur universitetdagi Tibbiyot fakultetining xalqaro bo'limida 400 nafar chet ellik talaba tahsil oladi. Ular uchun faqat 1-kursda o'zbek tili ta'limi yo'lga qo'yilgan va ularga 1 semestr davomida 60 soat (haftada ikki martta) o'zbek tili o'qitiladi. Ta'lim jarayoni vositachi til (ingliz tili) orqali olib boriladi. Biroq, ushbu universitetda ham hali chet ellik talabalar uchun o'zbek tili bo'yicha darslik va o'quv

qo'llanmalarning yetishmasligi, dars jarayonida o'qituvchi har bir mavzu uchun internetdagi ma'lumot va topshiriqlar asosida tayyorgarlik ko'rayotgani aniqlandi.

Andijon davlat tibbiyot instituti. Mazkur oliygohda chet ellik talabalar uchun o'zbek tili 1 yil (1-kurs) davomida jami 60 soat (haftada 1 marta, 2 semestr) davomida o'qitiladi. O'zbek tili uchun ikki fan – "O'zbek tili" va "O'zbek tilining sohada qo'llanishi" modullari ajratilgan. Darslar vositachi til (ingliz tili) yordamida olib boriladi. Chet ellik talabalarning o'zbek tilini o'rganishga bo'lgan ishtiyoq va qiziqishi juda yuqori. Biroq, mavjud materiallarning kamligi, o'quv qo'llanma va darsliklarning yetarli emasligi, borlari ham yopiq holda saqlanishi ularga qiyinchilik tug'dirmoqda. Chet ellik talabalar o'zbek tili ta'limi jarayonida asosan, o'zbek alifbosidagi ba'zi tovushlar talaffuzida qiynalishi hamda grammatik farqlarni tushunishda muammoga duch kelishlarini ta'kidlamoqda.

**Xulosa va takliflar.** Yuqoridagi ma'lumotlardan xulosa qilinadiki, O'zbekistonda nofilologik yo'nalishlardagi oliy ta'lim tashkilotlarida chet elliklarga o'zbek tili darslari uchun yechimini kutayotgan qator muammolar mavjud. Birinchidan, dars soatlari tilni yetarli darajada o'zlashtirish uchun kamlik qiladi. Ikkinchidan, chet ellik talabalar uchun o'zbek tili ta'limi amaliyoti asosan, grammatik qoidalar va lug'at yodlash jarayoniga asoslangan. Uchinchidan, kasbiy kommunikativ muloqotga asoslangan mavzular kam. To'rtinchidan, o'quv adabiyotlari, darslik va metodik manbalar yetarli emas. Beshinchidan, talabalar darsdan tashqari muhitda mahalliy aholi bilan integratsiya jarayoniga tayyor emas. Oltinchidan, aksariyat chet ellik talabalar o'zbek tilini muhim deb hisoblamaydi. Bunga sabab, ular uchun mutaxassislik darslari to'liq vositachi tillarda (rus, ingliz) olib boriladi. Darsdan tashqari muhitda esa ular bilan rus yo ingliz tillarida muloqot qilinadi.

Shuningdek, chet elliklar uchun yaratilgan mavjud darsliklarning ayrimlarida kommunikativ va kasbiy muloqot nuqtayi nazaridan ustuvor bo'lmagan leksik birliklar lug'at tarkibiga kiritilgani kuzatiladi. Masalan, tibbiyot yo'nalishlaridagi oliygohlarda foydalanilayotgan A1 daraja uchun "O'zbekona" darsligining lug'at qismida "varrak", "ro'mol", "sharf", "g'oz" kabi so'zlar berilgan. [14] Mazkur leksik birliklar o'zbek tilini umumiy kommunikativ maqsadlarda o'rganayotgan xorijliklar uchun ma'lum darajada ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Biroq kasbiy yo'naltirilgan, xususan tibbiy ta'lim jarayonida o'zbek tilini o'rganayotgan talabalar uchun ular ustuvor hisoblanmaydi. Aksincha, real kommunikativ ehtiyojlarga mos kelmagan bunday leksika tilni o'zlashtirish jarayonida ortiqcha kognitiv yuklama hosil qilib, ta'limning qiyinlik darajasini oshiradi. [6] Mazkur holat chet ellik talabalar uchun o'zbek tilini o'qitishda mavjud metodik yondashuvlarni qayta ko'rib chiqish hamda ta'lim mazmunini real kommunikativ ehtiyojlarga moslashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Shuningdek, chet ellik talabalar uchun o'zbek tilini o'qitishda xorij tajribasidan foydalanish ham samarali bo'ladi. Masalan, AQShdagi Arizona davlat universitetining

Kritik Tillar Institutida (Critical Languages Institute, CLI) o'zbek tili 2007-yildan beri o'qitib kelinadi. Kritik tillar deganda talab yuqori, ammo taklif kam bo'lgan tillar nazarda tutiladi. CLIda 14 ta til 7 hafta davomida intensiv tarzda o'qitiladi: talaba kuniga 4–5 soat o'qituvchi bilan til va madaniyatni o'rganadi, taxminan 4 soat uy ishini bajaradi. Darsdan tashqari talabalarga turli taqdimotlar, davra suhbatlari va metodik maslahatlar ham taqdim etiladi. Haftaning oxirida egallangan bilim va ko'nikmalar kompleks tarzda nazorat qilinadi. [1] Bu tajriba shuni ko'rsatadiki, intensiv va amaliyotga yo'naltirilgan yondashuv, dars va uy vazifalarining ijodiy, interaktiv tarzda berilishi hamda mutaxassislik va til o'qituvchilari hamkorligi talabalarni tilni samarali o'zlashtirishga va kasbiy kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi.

Bundan tashqari, o'zbek tilini kasbiy va akademik ehtiyojlar uchun o'qitishda ESP (English for Specific Purposes — Maxsus maqsadlar uchun ingliz tili) tajribasidan moslashtirilgan yondashuv tarzida foydalanish mumkin. Bunda til o'qituvchisi va mutaxassislik fani o'qituvchisi birgalikda ishlashi, talabaning kasbiy ehtiyojlari asosida darslar tuzilishi zarur. [3] Natijada, talabalar tildan kasbiy maqsadlarda samarali foydalanish ko'nikmalarini egallab, o'qish jarayonida hamda kelajakdagi kasbiy faoliyatida (masalan, hujjatlar bilan ishlash, mutaxassislar bilan muloqot qilish, professional vaziyatlarda og'zaki va yozma nutqni qo'llashda) til to'siqlarini yengib o'tish imkoniyatiga ega bo'ladi [5] Ushbu tajriba O'zbekistonda chet ellik talabalar uchun o'zbek tilini o'qitish amaliyotini takomillashtirish va ehtiyojlarga moslashtirishning samarali modelini shakllantirish imkonini beradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Adilova, S. (2025). Chet elliklarga o'zbek tilini o'qitishning o'ziga xosliklari. Zamonaviy filologiya masalalari: muammo va yechimlar, 1, 22–23.
2. Israilova, Z. (2025, 23 aprel). O'zbek tili: global yuksalish va ehtiyojlar. Ma'rifat gazetasi, 16-son.
3. Casti, A. (1999). The Role of Needs Analysis in English for Specific Purposes. Universitas Kristen Satya Wacana, Salatiga.
4. Ergasheva G. (2022). Chet elliklarga o'zbek tilini integrativ yondashuv asosida o'qitish metodikasini takomillashtirish. Academic Research in Educational Sciences, 3(2), 988–994. OOO Academic Research.
5. Kadirova X. (2022) O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishda pedagogikaning muhim jihatlari. Uzbekistan: Language and Culture, 2022, 54–66.
6. Kuzembayeva, G., & Zhakanova, B. (2021). Needs analysis in English language teaching of medical students in Kazakhstan. International Journal of Multilingual Education, 19, 45–55
7. Muhamedova, S., & Shirinova, Y. (2024). Ko'p tillilik va ko'p madaniyatlilik muhitida o'zbek tilini o'rgatish masalalariga doir. O'zbek tilining xorijda o'qitilishi: ta'lim nazariyasi va amaliyoti, 1, 3–6.
8. Pulatova, D. (2025). Challenges and prospects in teaching the Uzbek language to foreign students. Modern American Journal of Linguistics, Education, and Pedagogy, 1(3), 490–499.